

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI
“ MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI” FAKULTETI
“MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI” KAFEDRASI

DIPLOM LOYIHASI BO’YICHA

T U S H I N T I R I S H X A T I

Diplom loyihasining mavzusi: “Irmash-rivoj” MCHJ sharoitlari uchun “1510403 Moslama gaykasi” detalini tayyorlash texnologik jarayonini va operatsiyalarining texnologik ta’minot vositalari konstruksiyalarini ishlab chiqish.

Yo’nalish: Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jixozlash va avtomatlashtirish

4-kurs 151-15 guruh talabasi:	G’.SHarobidinov
Kafedra mudiri:	X.Akbarov
Rahbar:	O.Xudayberdiyev
Maslaxatchilar:	
Texnologik qismi:	O.Xudayberdiyev
Konstruktorlik qismi:	O.Xudayberdiyev
Xayot faoliyati xavfsizligi qismi:	N.Zulunov
Iqtisodiy qismi:	Z.Teshaboyeva

Andijon – 2019 yil

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI” FAKULTETI

“MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI” KAFEDRASI

DIPLOM LOYIHASINI BAJARISH BO'YICHA

T O P S H I R I Q

Sharobidinov G'iyosiddin Salimjon o'g'li

1. Diplom loyihasining mavzusi: “Irmash-rivoj” MCHJ sharoitlari uchun “1510403 Moslama gaykasi” detalini tayyorlash texnologik jarayonini va operatsiyalarining texnologik ta'minot vositalari konstruksiyalarini ishlab chiqish.

Institut bo'yicha 2018 yil 7-dekabrda 310-sonli buyruq bilan tasdiqlangan.

2. Diplom loyihasini bajarish uchun ma'lumotlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, qarorlari, farmoyishlari, VM qarorlari, ilmiy-texnik adabiyotlar, internet ma'lumotlari, detal ishchi chizmasi, ishlab chiqarish xajmi.

3. Tushintirish xatida keltiriladigan ma'lumotlar:

1) Kirish. O'zbekistonning rivojlanishda mashinasozlik sanoatining roli ahamiyati, qaror va farmonlar, diplom loyihasining maqsad va vazifalari to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

2) Umumiy qism. Detalning xizmat vazifasi, ishlab chiqarish turini aniqlash va boshqalar.

3) Texnologik qism. Zagatovka olish turini tanlash, texnologik jarayon marshuritini ishlab chiqish, detal konstruksiyasini texnologiklikka taxlili, zagatovkaga ishlov berishda qo'yim xisobi, kesish maromlarini xisoblash, vaqt me'yorini xisoblash.

4) Konstruktorlik qismi. Dastgox moslamasi, kesuvchi asbob va o'lchov vositalarini bayon va xisoblari.

5) Xayot faoliyati xavfsizligi qismi. Loyihalanayotgan ishchi joyini mehnat sharoitlarining ta'rifi, ishlab chiqarish joyida yoritish tizimini tanlash, ventilatsiya tizimini tanlash, elektr xavfsizligi, yong'in xavfsizligi, aloqa yong'in signalizatsiya tizimi va boshqalar, mehnat xavfsizligi bo'yicha barcha talablar va qonun qoidalar.

6) Iqtisodiy qism. Texnologik jarayonning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

7) Xulosa. Bajarilgan diplom loyihasi bo'yicha xulosalar va takliflar yoritiladi.

8) Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. Bajarilgan diplom loyihasi bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

9) Ilovalar. Spetsifikatsiyalar va texnologik jarayon xujjatlari.

4. Diplom loyihasining chizmalari ro'yhati:

1. Detal chizmasi
2. Zagotovka chizmasi.
3. Texnologik sozlash kartalari.
4. Moslama chizmasi.
5. Kesuvchi asbob chizmasi.
6. O'lchov vositasi yoki uchastka plani.

5. Diplom loyihasi qismlari bo'yicha maslahatchilar:

№	Diplom loyihasining qismlari	Boshlanish muddati	Tugallanish muddati	Imzo	Maslahatchining familiyasi va ismi
1	Texnologik qism	10.12.18	11.03.19		O.Xudayberdiyev
2	Konstruktorlik qismi	11.03.19	10.05.19		O.Xudayberdiyev
3	Xayot faoliyati xavfsizligi qismi	25.03.19	25.05.19		N.Zulunov
4	Iqtisodiy qism	25.03.19	25.05.19		Z.Teshaboyeva

6. Topshiriq berilgan sana :**10.12.2018****Rahbar:**

O.Xudayberdiyev

(imzo)**Topshiriq bajarish uchun qabul qilindi**

G'.SHarobidinov

(imzo)**Kafedra mudiri**

X.Akbarov

(imzo)

MUNDARIJA

KIRISH	5
1. UMUMIY QISM	8
1.1. Detalni xizmat vazifasi	8
1.2. Ishlab chiqarish turini aniqlash	9
1.3. Detal tuzilishining texnologikligi va uning miqdoriy ko'rsatkichlari	10
2. TEXNOLOGIK QISM	12
2.1. Zagotovka turini tanlash va uni olish usulini aniqlash	12
2.2. Texnologik jarayon marshrutini ishlab chiqish	13
2.3. Zagatovkaga ishlov berishda qo'yim hisobi	14
2.4. Kesish maromlarini hisoblash	17
2.5. Vaqt me'yorini xisobi	39
3. KONSTRUKTORLIK QISM	45
3.1. Dastgoh moslamasini bayoni va hisobi	45
3.2. Nazorat moslamasini bayoni va xisobi	47
3.3. Kesuvchi asbobni bayoni va hisobi	48
4. XAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI	51
5. IQTISODIY QISM	57
XULOSA	61
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	62
ILOVALAR	63

KIRISH

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konoyunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal suroatlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, sanoat va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish bugungi kun talabiga aylandi.

2017 yili 7 fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni chiqib, unda: 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi hamda Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi tasdiqlandi. Xususan, mamlakatni rivojlantirishning quyidagi 5 ta ustuvor yo'nalishi belgilangan:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;

2. Qonun ustuvorligini taominlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;

3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;

4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;

5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

“Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish” deb nomlangan uchinchi yo'nalishda ko'rsatilgan chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish uchun milliy valyuta va narxlarning barqarorligini ta'minlash, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, eksportga mo'ljallangan mahsulot va materiallar ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, transport-logistika infratuzilmasini nazarda tutilmoqda.

Mashinasozlik–jamiyatning moddiy texnika bazasini yaratuvchi va mamlakatimizning texnik taraqqiyotini rivojlanishini belgilovchi soha, chunki u sanoatning turli tarmoqlarini yangi texnika, ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlaydi. SHuning uchun mashinasozlik ishlab chiqarishning barcha sohalarini rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatuvchi sanoatning muhim tarmoqlaridan biri.

Insoniyatning rivojlanishi bosqichlarini boshlarida oddiy ko'rinishdagi texnologiyalardan foydalanib kelingan. Inson ongini taraqqiy etib rivojlanishi bilan bir qatorda ishlab chiqarish texnologiyasi o'z navbatida takomillashib kelmokda, ishlab chiqariladigan maxsulotlar murakkablashmoqda va sifat ko'rsatkichlarining darajasi ortib bormoqda. Korxonalarda murakkab texnologiyalarni kullash bilan maxsulotlarni ishlab chiqarish ta'minlanadi, ya'ni kishilik jamiyatini taraqqiy etish darajasi bilan qo'llanilayotgan yoki qo'llanishi mumkin bo'lgan texnologiyalar o'zoro bog'liq va ular biri ikkinchisiga ta'sir etishga qodirdir.

Hozirgi kunda iqtisodiyotni rivojlantirish chora tadbirlari korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslanuvchan texnologiyalarni keng joriy etish;

eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarning tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'lishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha konkret chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag'batlantirish uchun qo'shimcha omillar yaratish; qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarning raqobatdoshligini oshirishga qaratilgan.

Mashinasozlikni rivojlanishida ikki yo'nalish asosiy va belgilovchi bo'lib qolmoqda. Bulardan biri ishlab chiqarish jarayonining va uni texnologik tayyorlashni intellektuallashtirish: bu o'z navbatida loyihalash bo'limlarida va bevosita ishlab chiqarish jarayonlarida axborot texnologiyalari va avtomatlashtirish vositalaridan keng ko'lamda foydalanishdan iboratdir. Ikkinchi yo'nalish inson e'tiyojini individualligini, bozor iqtisodiyoti talablarini hisobga olgan holda belgilangan vazifani bajaruvchi turli ko'rinishdagi mashina va mexanizmlar yaratishdan iboratdir.

Diplom loyihasi mashinasozlik texnologiyasining nazariy asoslari, mashina va mexanizmlar detallarini tayyorlashning ilg'or texnologiyalari hamda ularni yig'ishning zamonaviy usullari to'g'risida ma'lumotlardan foydalanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va Qarorlariga asoslangan holda bajarilgan.

1. UMUMIY QISM

1.1. Detalning xizmat vazifasi

“Moslama gaykasi” detali texnologik mashina va mexanizmlarning detalaridan biridir. “Moslama gaykasi” detalini tayyorlash aniqligi texnologik mashinani aniqligini belgilaydi.

Detal A,B, H₁ va H₂ torets yuzalardan, C, D va E tashqi silindrik yuzalardan, F ichki teshiklardan va G faskadan iborat.

Detal Сталь 20 GOST 1050-60 materialidan tayyorlanadi. Uning kimyoviy tarkibi va mexanik xossalari 1 va 2 jadvallarda keltirilgan.

Jadval 1

Сталь 20 ning kimyoviy tarkibi		
C	0,17 - 0,24	
Si	0,17 - 0,37	
Mn	0,35 - 0,65	
Ni	до 0,25	
S	до 0,04	
P	до 0,04	
Cr	до 0,25	
Cu	до 0,25	
As	до 0,08	
Fe	~98	

Jadval 2

Сталь 20 ning mexanik xossalari

σ_B (МПа)	δ_5 (%)	ψ %	HB
390-490	7	50	163
340-440		50	163
490		40	207

1.2. Ishlab chiqarish turini aniqlash

Korxonaning bir yil davomida ishlab chiqarishi kerak bo'lgan mahsulot va zahira qismlarining ma'lumotiga ishlab chiqarish dasturi deb aytiladi. Ishlab chiqarish dasturi mahsulotni turi, soni, o'lchami va materiali to'g'risida ma'lumotdan iborat. Ishlab chiqarish dasturining hajmi, mahsulot tasnifi, jarayonning texnik va iqtisodiy shartlariga asosan shartli ravishda donali, seriyali hamda yalpi ishlab chiqarish turi mavjud. Seriyali ishlab chiqarish mayda, o'rta va ko'p seriyali bo'lishi mumkin. Ishlab chiqarish turlari o'ziga xos tashkiliy shaklga ega bo'lib, bitta korxonada har xil ishlab chiqarish turlari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarilishi mumkin.

Texnologik jarayonni tasnifini hamda uning tuzilishini ishlab chiqarish turi va unga to'g'ri keladigan ishni tashkil qilish shakllari belgilaydi. Ishlab chiqarish turini jadvallar usuli bilan aniqlaganda detalning og'irligi va yillik ishlab chiqarish dasturi talab qilinadi.

Detalining yillik dasturi $N=45000$ dona va og'irligi $m=0,3$ kg bo'lganda ([10], 2j., 18b.) ishlab chiqarish turi mavzuga mos holda o'rta seriyali deb aytish mumkin. Bunga asosan ishlab chiqarish qadamini quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi:

$$tb = \frac{Fg \cdot 60}{N} = \frac{4029 \cdot 60}{45000} = 5,37 \frac{\text{dak}}{\text{dona}}$$

bu yerda: $Fg = 4029$ soat – dastgohlarni bir yillik xaqiqiy ishlash vaqti fondi

$N = 45000$ dona – yillik ishlab chiqarish dasturi.

Bo'limdagi ish tartibi 2 smenali. Seriyali ishlab chiqarish turida detallarni partiyalarga bo'lib ishlov berilishi sababli partiyadagi detallar soni hisoblab topiladi.

$$n = \frac{N \cdot a}{F} = \frac{45000 \cdot 6}{254} = 163 \text{ dona}$$

bu yerda: $a = 6$ kun – partiyadagi detallarni ishlov berishga kiritilish davri

$F = 254$ kun – bir yildagi ishchi kunlar soni.

1.3 Detal tuzilishining texnologikligi va uning miqdoriy ko'rsatkichlari

“Moslama gaykasi” konstruktsiyasini texnologikligi bir xil sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan bir xil sharoitda tayyorlangan va ekspluatatsiya qilinadigan o'xshash konstrutsiyaga ega bo'lgan mahsulotga nisbatan yanada samardor texnologiyalar bilan ishlov berish, ekspluatatsiya qilish, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish imkoniyatini beradi.

Detalning texnologiklikka tahlil qilish, ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashni muhim masalasidir va unda mahsulot konstruktsiyasi va ishlab chiqarish texnologiyasi bir-biriga bog'langan holda hal qilinadi.

Konstruktsiyani texnologikligi tahlili quyidagi nuqtai nazarlar bo'yicha tahlil qilinadi: qo'llaniladigan materialni ko'rinishi va turi; xom ashyoni ko'rinishi va tayyorlash uslublari; qo'llaniladigan ishlov berish, yig'ish, tayyorlash korxonasidan tashqarida montaj qilish, nazorat qilish va sinashni texnologik uslublari va ko'rinishlari; progressiv texnologik jarayonlar, shuningdek, kam mehnat va energiya sarflanadigan, chiqindisiz, tipaviy texnologik jarayonlardan foydalanganlik darajasi; jarayonlarni mexanzatsiyalash, avtomatlashtirishi imkoniyati; unifikatsiyalangan yig'ish birikmalari va detallarni qo'llash darajasi; tayyorlovchi korxonani o'ziga xos xususiyatlari; talab qilingan ishchilar malakasi.

CHizmani tahlili shuni kursatdiki, detalni ishchi vazifasini o'zgartirmagan holda ularning tuzilishi elementlarini qisqartirish imkoniyati yo'q. Detal tuzilishi xom ashyo olishni ratsional usullaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Ishlov berishda qiyinchilik tug'diradigan va maqsadga muvofiq bo'lmagan yuzalar aniqlanmadi. Zagotovka tuzilishi va mustahkamligi ish unumdorligi yuqori bo'lgan ishlov berish usullaridan foydalanishni chegaralanmaydi. Materialni ishlov beriluvchanligi lezviyali asboblardan foydalanishga imkon beradi. Texnologiklik va aniqlik bo'yicha tahlil texnologik jarayon marshrutini tuzish, dastgoxlarni tanlash, berilgan aniqlikka erishish usullarini va operatsiyalardan so'ng nazorat ishlarini aniqlashga negiz bo'lib qoladi.

Bajarilgan tahlil quyidagi koeffitsientlarni aniqlashga imkon berdi:

1. Konstruktiv elementlarni unifikatsiyasini koeffitsienti:

$$K_{u.e} = Q_{u.e} / Q_e,$$

bu yerda

$Q_{u.e}$ va Q_e – unifitsiyalangan konstruktiv elementlar soni va detalni hamma elemenlarini soni.

$$K_{u.e} = 8/12 = 0,66$$

2. Materialdan foydalanish koeffitsienti:

$$KIM = q / Q,$$

bu yerda:

q – detall og'irligi; Q – zagotovka og'irligi.

$$KIM = 0,3/0,4 = 0,75$$

3. Ishlov berish aniqligi koeffitsienti:

$$K_{m.o} = 1 - \frac{1}{A_{\dot{y}p}},$$

bu yerda

$$A_{\dot{y}p} = \frac{(n_1 + 2n_2 + 3n_3 + \dots + 19n_{19})}{\sum_{i=1}^{19} n_i} = \frac{104}{12} = 8,6$$

$$K_{m.o} = 1 - \frac{1}{8,6} = 0,88$$

4. Yuzalar g'adir-budurlik koeffitsienti:

$$K_m = \frac{1}{B_{ep}},$$

bu yerda

$$B_{ep} = \frac{(0,01n_1 + 0,02n_2 + \dots + 40n_{13} + 80n_{14})}{\sum_{i=1}^{14} n_i} = \frac{53}{12} = 4,4$$

$$K_m = \frac{1}{4,4} = 0,22$$

Bajarilgan tahlil detalini to'g'ri loyihalashga imkoniyat beradi.

2. TEXNOLOGIK QISM

2.1. Zagotovka turini tanlash va uni tayyorlash usulini aniqlash

Mashina detallarining zagotovkalari qora va rangli metallardan quyish, bolg'alash, shtamplash, prokat, payvandlash va boshqa usullar bilan tayyorlanadi, shuningdek kukun metallurgiyasi hamda metallmas materiallardan foydalaniladi.

Zagotovkalar toza va qoralarga bo'linib, toza zagotovka tayyolangandan keyin kesib ishlanmaydi, o'lchamlari va tozaligi tayyor detal chizmasida ko'rsatilgan o'lcham va tozalikka to'g'ri keladi. Qora zagotovkalarga chizma talablariga to'g'ri keladigan o'lcham, aniqlik va tozalikdagi detal hosil qilish maqsadida qo'yim kesib olish yo'li bilan mexanik ishlov beriladi.

Detalni o'lcham va materiali, tuzilishi, ishchi vazifasi, uni tayyorlashga texnik talablar, yillik dastur kabi omillar zagotovka olish usulini tanlashga asos bo'ladi. Zagotovka olish usulini tanlashda zagotovka o'lchami va tuzilishi detalni o'lcham va tuzilishiga yaqin bo'lishini ta'minlash kerak. SHu bilan bir qatorda zagotovka aniqligini oshirish va tuzilishini murakkablashtirish uni tannarxini oshishiga olib kelishini unutmaslik kerak. SHuning uchun zagotovka olishni maqbul usulini tannarxi ham kam bo'lishi zurur.

Zagotovka olishni mavjud usullarni taxlil kilib, berilgan ishlab chiqarish sharoitida detalimiz uchun zagotovka tayyorlash maqbul usuli deb pratlashni tanladik.

$$S_{zag} = \left(\frac{C_1}{1000} \cdot Q \cdot R_t \cdot R_c \cdot R_b \cdot R_m \cdot R_n \right) - (Q - q) \frac{S_{otx}}{1000}, \text{сум}$$

bu yerda

S_1 – bir tonna material tannarxi, so'm

$R_t = 1,0$ ([2], 37 b.) – aniqlik koeffitsienti;

$R_s = 0,84$ ([2], 2.12 j., 38 b.) - murakkablik koeffitsienti;

$R_b = 0,7$ ([2], 2.12 j., 38 b.) – og'irlik koeffitsienti;

$R_m = 0,84$ ([2], 33 b.) - material koeffitsienti;

$R_n = 1,0$ ([2], 34 b.) - seriallash koeffitsienti;

29183,616

$$S_{\text{заг}} = \left(\frac{7500000}{1000} \cdot 1,1 \cdot 1,0 \cdot 0,84 \cdot 0,7 \cdot 0,84 \cdot 1,0 \right) - (1,1 - 0,8) \frac{600000}{1000} = 3894 \text{ c} \check{m}$$

2.2. Detal yuzalariga mexanik ishlov berish rejasini tuzish

3-jadval

Operatsiya №	O'tish №	Operatsiya nomi va o'tishlar mazmuni	Bazalash yuzasi	Mah-kamlash yuzasi	Dastgoh nomi
1	2	3	4	5	6
005		Tokarlik-revolver	B	B	Tokarlik-revolver 1П365 dastgoxi
	1	A yuza kesilsin			
	2	B yuza Ø71 mm va L=20 mm ga qora yo'nilsin			
	3	B yuza Ø70 mm va L=20 mm ga toza yo'nilsin			
	4	D yuzada 1x45° faska ochilsin			
	5	F yuzada 1x45° faska ochilsin			
	6	C yuza Ø33 mm va L=20 mm ga yo'nib kehgaytirilsin			
	7	C yuzada M36x1.5 rezba ochilsin			
	8	Ayuza qirqib ajratilsin			
010		Radial-parmalash	A	B	Radial-parmalash 2B56 dastgoxi
	1	M yuzada 2ta teshiklar Ø6mm L=15 mm ga parmalansin			
	2	J yuzada Ø5mm L=15 mm li teshik parmalansin			
	3	K teshik Ø6.3mm L=4.5 mm ga zenkerlansin			
	4	L teshik 45° ga L=3 mm ga sekovkalansin			
	5	J yuzadagi M6 rezba L=10.5mm o'lchamda ochilsin			
015		Frezalash operatsiyasi	B	D	Universal frezalash 6H81 dastgoxi
	1	I ariqcha frezalansin			

2.3. Mexanik ishlov berish uchun qo'yimlar miqdorini hisobi

Zagotovkaga mexanik ishlov berish jaryonida talab etilgan o'lchamlarni. ularni chetlanishlar doirasida va yuza g'adir-budirligini ta'minlash maqsadida olib tashlandigan metall qatlami qo'yim deb aytiladi.

Detal yuzasining talab etilgan tozaligini va aniqligini ta'minlash maqsadida har bir texnologik o'tishda olib tashlangan qo'yimlarning yig'indisi umumiy qo'yim miqdorini tashkil qiladi. Qo'yimlar miqdori analitik usulda va jadvallar yordamida aniqlanadi.

1. A va H yuzalar uchun xisoblaymiz $l = 15 \text{ js}12$

Zagotovka prokatusulida olingan. Uch mushtchali patronga o'rnatiladi.

Materiali Po'lat 20

Ishlov berish ketma – ketligi

Bir marta kesish.

Zagotovka yuzasini sifati

$R_z = 150 \text{ mkm}$, $T = 150 \text{ mkm}$ ([3], 63 b.)

Fazoviy chetlanish.

$\rho = \rho_k = \Delta_k \cdot l = 3 \cdot 82 = 240 \text{ mkm}$

O'rnatish xatoligi

$$\varepsilon_{yp} = \sqrt{\varepsilon_o^2 + \varepsilon_M^2};$$

$\varepsilon_b = 0$ uch mushtchali patronga o'rnatilganda.

$\varepsilon_m = 80 \text{ mkm}$ ([3], 77 b.)

$\varepsilon_{o'r} = \varepsilon_m = 80 \text{ mkm}$

Minimal qo'yim quyidagi formuladan topiladi.

$$2Z_{imin} = 2 (R_{zi-1} + T_{i-1} + \rho_{i-1} + \varepsilon_i)$$

bu yerda: R_z -yuzaning g'adir-budirligi, mkm; T -nivelir-nuqsonli qatlam kattaligi, mkm; ρ - detal shaklining fazoviy chetlanishlar miqdori, mkm; ε - bajarilayotgan amalda zagotovkaning dastgoh moslamasiga o'rnatish xatoligi, mkm.

$$2Z_{imin} = 2 (150 + 150 + 240 + 80) = 2 \cdot 620 \text{ mkm}$$

Xisobiy o'lchamlar.

$$L_1 = 14,825 + 1,24 = 16,065 \text{ mm}$$

Dopusklar

$$\delta_1 = 350 \text{ mkm}$$

$$\delta_2 = 2000 \text{ mkm} ([8], 171 \text{ b.})$$

CHegaraviy o'lchamlar

$$l_{\min 1} = 14,83 \text{ mm}$$

$$l_{\max 1} = 14,83 + 0,35 = 15,18 \text{ mm}$$

$$l_{\min z} = 14,07 \text{ mm}$$

$$l_{\max z} = 16,07 + 2,0 = 18,07 \text{ mm}$$

Qo'yimlarni chegaraviy miqdorlari

$$2Z_{\min}^{mp} = 16,07 - 14,83 = 1,24 \text{ mm}$$

$$2Z_{\max}^{np} = 18,07 - 15,18 = 2,89 \text{ mm}$$

Umumiy qo'yimlar.

$$Z_{\min} = 1240 \text{ mkm}$$

$$Z_{\max} = 2890 \text{ mkm}$$

Nominal qo'yim.

$$Z_{0\text{nom}} = Z_{0\text{min}} + V_z - V_d = 1240 + 1000 - 170 = 2065 \text{ mkm}$$

$$L_{0\text{nom}} = 15 + 2,07 = 17,07 \text{ mm}$$

Xisoblarni tekshiramiz.

$$2Z_{\max}^{np} - 2Z_{\min}^{mp} = 2890 - 1240 = 1650 \text{ mkm}$$

$$\delta_3 - \delta_1 = 2000 - 350 = 1650 \text{ mkm}$$

Demak xisoblar to'g'ri.

2. C yuza uchun qo'yimlarni hisoblaymiz

$$\varnothing 70^{-0,039} \text{ mm}$$

1. Qora yo'nish.

2. Toza yo'nish.

Zagotovka yuzasini sifati

$$R_z = 150 \text{ mkm} ; T = 250 \text{ mkm}$$

$$R_{z1} = 50 \text{ mkm} ; T_1 = 50 \text{ mkm}$$

Fazoviy chetlanish.

$$\rho = \sqrt{\rho_{\kappa}^2 + \rho_{\eta}^2}$$

$$\rho_k = \Delta \cdot l = 2 \cdot 270 = 540 \text{ mkm}$$

$$\rho_{ts} = 0$$

$$\rho = \rho_k = 540 \text{ mkm}$$

$$\rho_1 = 0,006 \cdot 540 = 32 \text{ mkm}$$

O'rnatish xatoligi

$$\varepsilon_{o,r} = 0$$

Minimal qo'yim quyidagi formuladan topiladi.

$$2Z_{\min} = 2(R_{zi-1} + T_{i-1} + R_{i-1})$$

bu yerda: R_z -yuzaning g'adir-budirligi, mkm; T -nivelir-nuqsonli qatlam kattaligi, mkm; ρ - detal shaklining fazoviy chetlanishlar miqdori, mkm; ε_o - bajarilayotgan amalda zagotovkaning dastgoh moslamasiga o'rnatish xatoligi, mkm.

$$2Z_{\min 1} = 2(150 + 250 + 540) = 2 \cdot 140 \text{ mkm}$$

$$2Z_{\min 2} = 2(50 + 50 + 32) = 2 \cdot 132 \text{ mkm}$$

Xisobiy o'lchamlar.

$$d_{x1} = 69,961 + 0,264 = 70,225 \text{ mm}$$

$$d_{x2} = 70,225 + 1,880 = 72,105 \text{ mm}$$

Dopusklar

$$\delta_1 = 39 \text{ mkm}$$

$$\delta_2 = 250 \text{ mkm}$$

$$\delta_3 = 1100 \text{ mkm} ([3], 164. \text{ b.})$$

CHegaraviy o'lchamlar

$$d_{\min} = 3369,96 \text{ mm}$$

$$d_{\max 1} = 69,961 + 0,039 = 70,14 \text{ mm}$$

$$d_{\min 2} = 70,23 \text{ mm}$$

$$d_{\max 2} = 70,23 + 0,25 = 70,48 \text{ mm}$$

$$d_{\min 3} = 72,11 \text{ mm}$$

$$d_{\max 3} = 72,11 + 1,1 = 73,21 \text{ mm}$$

Qo'yimlarni chegaraviy miqdorlari

$$2Z_{\min}^{np} = 70,23 - 69,98 = 0,27 \text{ mm}$$

$$2Z_{\min}^{mp} = 72,11 - 70,23 = 1,88 \text{ mm}$$

$$2Z_{\max}^{np} = 70,48 - 70 = 0,48 \text{ mm}$$

$$2Z_{\max}^{mp} = 73,21 - 70,48 = 2,73 \text{ mm}$$

Umumiy qo'yimlar.

$$Z_{\min} = 270 + 1880 = 2150 \text{ mkm}$$

$$Z_{\max} = 480 + 2750 = 3230 \text{ mkm}$$

Nominal qo'yim.

$$Z_{\text{nom}} = Z_{\min} + V_z - V_d = 2150 + 700 - 39 = 2811 \text{ mkm}$$

$$d_{z\text{nom}} = 70 + 2,8 = 72,8 \text{ mm}$$

Xisoblarni tekshiramiz.

$$2Z_{\max 1}^{np} - 2Z_{\min 1}^{mp} = 480 - 270 = 210 \text{ mkm}$$

$$\delta_2 - \delta_1 = 250 - 40 = 210 \text{ mkm}$$

$$2Z_{\max 2}^{np} - 2Z_{\min 2}^{mp} = 2730 - 1880 = 850 \text{ mkm}$$

$$\delta_2 - \delta_2 = 1100 - 250 = 850 \text{ mkm}$$

Demak xisoblar to'g'ri.

2.4. Kesish maromlarini hisoblash va asosiy vaqtni aniqlash

005 Tokarlik operatsiyasi

1-o'tish. A yuza $D=75\text{mm}$, $l=22.5 \text{ mm}$ li yuza kesilsin. Dastgoh: Tokorlik revolver 1П365. Ishlov berishga qoldirilgan qo'yim miqdori $h=3 \text{ mm}$. Mexanik ishlov berishdan so'ng yuzaning g'adir-budurligi $R_z=40 \text{ mkm}$ ga teng. Zagotovka materiali Сталь 20, $\sigma_B=412 \text{ MPa}$.

Kesuvchi asbob : Tokarlik yon tomon kesuvchi keskich , kesuvchi qismi materiali T15K6, keskich tanasi materiyali Polat 40, ko'ndalang kesim yuzasi $16 \times 20 \text{ mm}$, $l=160 \text{ mm}$

Geometrik elementlari:

$$\gamma = 10^0; \alpha = 12^0; \lambda = 0, \varphi = 45^0, \varphi_1 = 45^0, r = 1 \text{ mm}$$

Kesish maromini belgilaymiz.

1. Kesish chuqurligini belgilaymiz. Bir marta o'tish bilan qo'yim miqdorini olib tashlashda $t=h=3 \text{ mm}$.

2. Surish qiymatini aniqlaymiz.

$$S_o = 0.6-1.2 \text{ mm/ayl. ([3], 2.13-j, 42-b)}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab $S_o = 0.7 \text{ mm/ayl}$ ni qabul qilamiz.

3. Kesishda asosiy harakat tezligini aniqlaymiz.

$$v = \frac{C_v}{T^m \cdot t^x \cdot S^y} \cdot K_v$$

T-keskich turg'unlik davri, $T = 30 \dots 60 \text{ daqiqa}$ ([3], 46-b)

$T = 60 \text{ daqiqa}$ qabul qilamiz

Formuladagi koeffitsientlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz.

$$C_v = 292, x = 0.3, y = 0.15, m = 0.18 \text{ ([3], 2.19-j, 46-b)}$$

To'g'rilash koeffitsientlarini e'tiborga olamiz.

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{nv} \cdot K_{uv}$$

K_{mv} - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{mv} = K_f \left(\frac{750}{\sigma_B} \right)^{n_v} \text{ ([3], 2.1-j, 34-b)}$$

$$n_v = -1; K_f = 1.0 \text{ ([3], 2.2-j, 35-b)}$$

$$K_{mv} = 1 \cdot \left(\frac{750}{412} \right)^1 = 1.82$$

K_{nv} - Ishlov berilayotgan yuza xolatini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{nv} = 0.9 \text{ ([3], 2.5-j, 37-b)}$$

K_{uv} - Kesuvchi asbob kesuvchi qismi materialini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{uv} = 1 \text{ ([3], 2.6-j, 37-b)}$$

$$K_v = 1.82 \cdot 1 \cdot 0.9 = 1.64$$

$$V = \frac{C_v}{T^m \cdot t^x \cdot S^y} \cdot K = \frac{292}{60^{0.18} \cdot 3^{0.3} \cdot 0.7^{0.15}} \cdot 1.64 = 173.88 \text{ m/daq}$$

4.Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 173,88}{3.14 \cdot 70} = 719 \text{ daq}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi $n=750 \text{ daq}^{-1}$ ni qabul qilamiz.

5.Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 70 \cdot 750}{1000} = 164.85 \text{ m / daq}$$

6. Kesish kuchi P_z ni quyidagi formuladan hisoblab topamiz:

$$P_z = 10 \cdot C_p \cdot t^x \cdot S^y \cdot v^n \cdot K_p$$

Mavjud ishlov berish sharoiti uchun:

$$C_p=300, x=1, y=0.75, n=-0.15 \quad ([3], 2.24-j, 50-b)$$

Kesish kuchidagi to'g'rilash koeffitsienti

$$K_p = K_{mp} \cdot K_{\varphi p} \cdot K_{\gamma p} \cdot K_{\lambda p} \cdot K_{rp}$$

K_{mp} - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{mp} = \left(\frac{\sigma_B}{750} \right)^n \quad n=-0.15 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$K_{mp} = \left(\frac{412}{750} \right)^{0.75} = 0.63$$

$$K_{\varphi p}=1, K_{\gamma p}=1, K_{\lambda p}=1, K_{rp}=0.93 \quad ([3], 2.25-j, 52-b)$$

$$K_p = 0.63 \cdot 1.08 \cdot 1 \cdot 1 \cdot 0.87 = 0.6$$

$$P_z = 10 \cdot 300 \cdot 3^1 \cdot 0.7^{0.75} \cdot 164.85^{-0.15} \cdot 0.6 = 1921 \text{ N}$$

7.Kesish uchun sarflangan quvvat:

$$N_{kes} = \frac{P_z \cdot V_{xaq}}{60 \cdot 1020}; \text{ kVt}$$

$$N_{kes} = \frac{1921 \cdot 164.85}{60 \cdot 1020} = 5.17 \text{ kVt}$$

8.Dastgoh yuritmasi quvvati yetarli ekanligini tekshiramiz:

$$N_{shp} = N_d \cdot \eta = 14 \cdot 0.75 = 10.5 \text{ kvt};$$

$$N_{kes} \leq N_{shp}, 5.17 \leq 10.5, \text{ yani ishlov berish mumkin.}$$

9.Asosiy vaqtni hisoblaymiz.

$$T_a = \frac{L \cdot i}{n \cdot S}$$

Keskichni ishchi yurish uzunligi $L=l+y+\Delta$

bu yerda: $y=2$ mm, keskichni botishi

$\Delta=2$ mm, keskichni chiqishi

$l=22,5$, $i=1$ o'tishlar soni

$L=22,5+2+2 =26,5$ mm

$$T_a = \frac{26,5 \cdot 1}{750 \cdot 0.7} = 0.05 \text{ daq}$$

2-o'tish. B yuza Ø71 mm va $L=20$ mm ga qora yo'nilsin. Dastgoh: Tokorlik revolver 1П365. Ishlov berishga qoldirilgan qo'yim miqdori $h=2$ mm. Mexanik ishlov berishdan so'ng yuzaning g'adir-budurligi $R_z=40$ mkm ga teng. Zagotovka materiali Сталь 20,

$$\sigma_B=412 \text{ MPa.}$$

Kesuvchi asbob : Tokorlik o'tuvchi keskichi , kesuvchi qismi materiyali T15K6, keskich tanasi materiyali Polat 40, ko'ndalang kesim yuzasi 16×20 mm, $l=160$ mm

Geometrik elementlari:

$$\gamma = 10^0 ; \alpha = 12^0 ; \lambda = 0 , \varphi = 45^0 , \varphi_1 = 45^0 , r=1 \text{ mm}$$

Kesish maromini belgilaymiz.

1.Kesish chuqurligini belgilaymiz. Bir marta o'tish bilan qo'yim miqdorini olib tashlashda $t=h=2$ mm.

2.Surish qiymatini aniqlaymiz.

$$S_o=0.4-0.5 \text{ mm/ayl. ([3], 2.13-j, 42-b)}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab $S_o=0.5$ mm/ayl ni qabul qilamiz.

3.Kesishda asosiy harakat tezligini aniqlaymiz.

$$v = \frac{C_v}{T^m \cdot t^x \cdot S^y} \cdot K_v$$

T-keskich turg'unlik davri, $T=30....60$ daqiqa ([3], 46-b)

$T=60$ daqiqa qabul qilamiz

Formuladagi koeffitsientlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz.

$$C_v=292, x=0.3, y=0.15, m=0.18 \quad ([3], 2.19-j, 46-b)$$

To'g'rilash koeffitsientlarini e'tiborga olamiz.

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{nv} \cdot K_{uv}$$

K_{mv} - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{mv} = K_f \left(\frac{750}{\sigma_B} \right)^{n_v} \quad ([3], 2.1-j, 34-b)$$

$$n_v=1.75; K_f=1.0 \quad ([3], 2.2-j, 35-b)$$

$$K_{mv} = 1 \cdot \left(\frac{750}{530} \right)^{1.75} = 1.84$$

K_{nv} - Ishlov berilayotgan yuza xolatini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{nv}=0.9 \quad ([3], 2.5-j, 37-b)$$

K_{uv} - Kesuvchi asbob kesuvchi qismi materialini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{uv} = 1 \quad ([3], 2.6-j, 37-b)$$

$$K_v = 1.84 \cdot 1 \cdot 0.9 = 1.65$$

$$V = \frac{C_v}{T^m \cdot t^x \cdot S^y} \cdot K = \frac{292}{60^{0.18} \cdot 2^{0.3} \cdot 0.5^{0.15}} \cdot 1.65 = \frac{292}{2.1 \cdot 1.23 \cdot 0.9} \cdot 1.65 = 207.2 m / daq$$

4.Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 207.2}{3.14 \cdot 70} = 1832.9 daq^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi $n=1500 daq^{-1}$ ni qabul qilamiz.

5.Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 70 \cdot 1500}{1000} = 169.56 m / daq$$

6. Kesish kuchi P_z ni quyidagi formuladan hisoblab topamiz:

$$P_z = 10 \cdot C_p \cdot t^x \cdot S^y \cdot v^n \cdot K_p$$

Mavjud ishlov berish sharoiti uchun:

$$C_p=300, x=1, y=0.75, n=-0.15 \quad ([3], 2.24-j, 50-b)$$

Kesish kuchidagi to'g'rilash koeffitsienti

$$K_p = K_{mp} \cdot K_{\varphi p} \cdot K_{\gamma p} \cdot K_{\lambda p} \cdot K_{rp}$$

K_{mp} - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsent;

$$K_{mp} = \left(\frac{\sigma_B}{750} \right)^n \quad n = -0.15 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$K_{mp} = \left(\frac{530}{750} \right)^{-0.15} = 1.05$$

$$K_{\varphi p} = 1, K_{\gamma p} = 1, K_{\lambda p} = 1, K_{rp} = 0.93 \quad ([3], 2.25-j, 52-b)$$

$$K_p = 1.05 \cdot 1.08 \cdot 1 \cdot 1 \cdot 0.93 = 0.98$$

$$P_z = 10 \cdot 300 \cdot 2^1 \cdot 0.5^{0.75} \cdot 169.56^{-0.15} \cdot 0.98 = 1633 \text{ N}$$

7. Kesish uchun sarflangan quvvat:

$$N_{kes} = \frac{P_z \cdot V_{xaq}}{60 \cdot 1020}; \text{ kVt}$$

$$N_{kes} = \frac{1633 \cdot 169.56}{60 \cdot 1020} = 4.52 \text{ kVt}$$

8. Dastgoh yuritmasi quvvati yetarli ekanligini tekshiramiz:

$$N_{shp} = N_d \cdot \eta = 14 \cdot 0.75 = 10.5 \text{ kVt};$$

$$N_{kes} \leq N_{shp}, 4.52 \leq 10.5, \text{ yani ishlov berish mumkin.}$$

9. Asosiy vaqtni hisoblaymiz.

$$T_a = \frac{L \cdot i}{n \cdot S}$$

Keskichni ishchi yurish uzunligi $L = l + y + \Delta$

bu yerda: $y = 2 \text{ mm}$, keskichni botishi

$\Delta = 2 \text{ mm}$, keskichni chiqishi

$l = 15$, $i = 1$ o'tishlar soni

$$L = 15 + 2 + 2 = 19 \text{ mm}$$

$$T_a = \frac{19 \cdot 1}{1500 \cdot 0.5} = 0.0127 \text{ daq}$$

3-o'tish. B yuza $\varnothing 70 \text{ mm}$ va $L = 20 \text{ mm}$ ga toza yo'nilsin. Dastgoh: Tokorlik revolver 1П365. Ishlov berishga qoldirilgan qo'yim miqdori $h = 6.5 \text{ mm}$. Mexanik ishlov berishdan so'ng yuzaning g'adir-budurligi $R_z = 40 \text{ mkm}$ ga teng. Zagotovka materiali Сталь 20,

$$\sigma_B = 412 \text{ MPa.}$$

Kesuvchi asbob : Tokorlik o'tuvchi keskich , kesuvchi qismi materialiyali T15K6, keskich tanasi materialiyali Polat 40, ko'ndalang kesim yuzasi 16x20 mm, l=160 mm

Geometrik elementlari:

$$\gamma = 10^\circ ; \alpha = 12^\circ ; \lambda = 0 , \varphi = 45^\circ , \varphi_1 = 45^\circ , r = 1 \text{ mm}$$

Kesish maromini belgilaymiz.

1.Kesish chuqurligini belgilaymiz. Bir marta o'tish bilan qo'yim miqdorini olib tashlashda $t=h=6.5 \text{ mm}$.

2.Surish qiymatini aniqlaymiz.

$$S_o = 0.4-0.5 \text{ mm/ayl. ([3], 2.13-j, 42-b)}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab $S_o = 0.5 \text{ mm/ayl}$ ni qabul qilamiz.

3.Kesishda asosiy harakat tezligini aniqlaymiz.

$$v = \frac{C_v}{T^m \cdot t^x \cdot S^y} \cdot K_v$$

T-keskich turg'unlik davri, $T=30....60 \text{ daqiqa}$ ([3], 46-b)

$T=60 \text{ daqiqa}$ qabul qilamiz

Formuladagi koeffitsientlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz.

$$C_v = 292, x = 0.3, y = 0.15, m = 0.18 \text{ ([3], 2.19-j, 46-b)}$$

To'g'rilash koeffitsientlarini e'tiborga olamiz.

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{nv} \cdot K_{uv}$$

K_{mv} - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{mv} = K_f \left(\frac{750}{\sigma_B} \right)^{n_v} \text{ ([3], 2.1-j, 34-b)}$$

$$n_v = 1.75; K_f = 1.0 \text{ ([3], 2.2-j, 35-b)}$$

$$K_{mv} = 1 \cdot \left(\frac{750}{530} \right)^{1.75} = 1.84$$

K_{nv} - Ishlov berilayotgan yuza xolatini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{nv} = 0.9 \text{ ([3], 2.5-j, 37-b)}$$

K_{uv} - Kesuvchi asbob kesuvchi qismi materialini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{uv} = 1 \text{ ([3], 2.6-j, 37-b)}$$

$$K_v = 1.84 \cdot 1 \cdot 0.9 = 1.65$$

$$V = \frac{C_v}{T^m \cdot t^x \cdot S^y} \cdot K = \frac{292}{60^{0.18} \cdot 6.5^{0.3} \cdot 0.5^{0.15}} \cdot 1.65 = \frac{292}{2.1 \cdot 1.75 \cdot 0.9} \cdot 1.65 = 145.6 \text{ m/daq}$$

4. Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 145.6}{3.14 \cdot 23} = 2016 \text{ daq}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi $n=1500 \text{ daq}^{-1}$ ni qabul qilamiz.

5. Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 23 \cdot 1500}{1000} = 108.3 \text{ m/daq}$$

6. Kesish kuchi P_z ni quyidagi formuladan hisoblab topamiz:

$$P_z = 10 \cdot C_p \cdot t^x \cdot S^y \cdot v^n \cdot K_p$$

Mavjud ishlov berish sharoiti uchun:

$$C_p=300, x=1, y=0.75, n=-0.15 \quad ([3], 2.24-j, 50-b)$$

Kesish kuchidagi to'g'rilash koeffitsienti

$$K_p = K_{mp} \cdot K_{\varphi p} \cdot K_{\gamma p} \cdot K_{\lambda p} \cdot K_{rp}$$

K_{mp} - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{mp} = \left(\frac{\sigma_B}{750} \right)^n \quad n=-0.15 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$K_{mp} = \left(\frac{530}{750} \right)^{-0.15} = 1.05$$

$$K_{\varphi p}=1, K_{\gamma p}=1, K_{\lambda p}=1, K_{rp}=0.93 \quad ([3], 2.25-j, 52-b)$$

$$K_p = 1.05 \cdot 1.08 \cdot 1 \cdot 1 \cdot 0.87 = 0.98$$

$$P_z = 10 \cdot 300 \cdot 6.5^1 \cdot 0.5^{0.75} \cdot 108.3^{-0.15} \cdot 0.98 = 5733 \text{ N}$$

7. Kesish uchun sarflangan quvvat:

$$N_{kes} = \frac{P_z \cdot V_{xaq}}{60 \cdot 1020}; \text{ kVt}$$

$$N_{kes} = \frac{5733 \cdot 108.3}{60 \cdot 1020} = 10.1 \text{ kVt}$$

8. Dastgoh yuritmasi quvvati yetarli ekanligini tekshiramiz:

$$N_{shp}=N_d \cdot \eta = 14 \cdot 0.75 = 10.5 \text{ kvt};$$

$$N_{kes} \leq N_{shp}, \quad 10.1 \leq 10.5, \text{ yani ishlov berish mumkin.}$$

9. Asosiy vaqtni hisoblaymiz.

$$T_a = \frac{L \cdot i}{n \cdot S}$$

Keskichni ishchi yurish uzunligi $L=l+y+\Delta$

bu yerda: $y=2 \text{ mm}$, keskichni botishi

$\Delta=2 \text{ mm}$, keskichni chiqishi

$l=24$, $i=1$ o'tishlar soni

$$L=24+2+2 = 28 \text{ mm}$$

$$T_a = \frac{28 \cdot 1}{1500 \cdot 0.5} = 0.037 \text{ daq}$$

6-o'tish. C yuza $\varnothing 33 \text{ mm}$, $l=20 \text{ mm}$ o'lchamda yo'nib kengaytirilsin. Dastgoh: Tokorlik revolver 1П365. Ishlov berishga qoldirilgan qo'yim miqdori $h=0.5 \text{ mm}$. Mexanik ishlov berishdan so'ng yuzaning g'adir-budurligi $R_z=40 \text{ mkm}$ ga teng. Zagotovka materiali Сталь 20,

$$\sigma_B=412 \text{ MPa.}$$

Kesuvchi asbob : Tokorlik o'tuvchi keskich , kesuvchi qismi materiyali T15K6, keskich tanasi materiyali Polat 40, ko'ndalang kesim yuzasi $16 \times 20 \text{ mm}$, $l=160 \text{ mm}$

Geometrik elementlari:

$$\gamma = 10^\circ ; \alpha = 12^\circ ; \quad \lambda = 0 , \varphi = 45^\circ , \varphi_1 = 45^\circ , r=1 \text{ mm}$$

Kesish maromini belgilaymiz.

1. Kesish chuqurligini belgilaymiz. Bir marta o'tish bilan qo'yim miqdorini olib tashlashda $t=h=0.5 \text{ mm}$.

2. Surish qiymatini aniqlaymiz.

$$S_o=0.6-1.0 \text{ mm/ayl. ([3], 2.13-j, 42-b)}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab $S_o=0.7 \text{ mm/ayl}$ ni qabul qilamiz.

3. Kesishda asosiy harakat tezligini aniqlaymiz.

$$v = \frac{C_v}{T^m \cdot t^x \cdot S^y} \cdot K_v$$

T-keskich turg'unlik davri, $T=30....60$ daqiqa ([3], 46-b)

$T=60$ daqiqa qabul qilamiz

Formuladagi koeffitsientlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz.

$C_v=292$, $x=0.3$, $y=0.15$, $m=0.18$ ([3], 2.19-j, 46-b)

To'g'rilash koeffitsientlarini e'tiborga olamiz.

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{nv} \cdot K_{uv}$$

K_{mv} - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{mv} = K_f \left(\frac{750}{\sigma_B} \right)^{n_v} \quad ([3], 2.1-j, 34-b)$$

$n_v=1.75$; $K_f=1.0$ ([3], 2.2-j, 35-b)

$$K_{mv} = 1 \cdot \left(\frac{750}{530} \right)^{1.75} = 1.84$$

K_{nv} - Ishlov berilayotgan yuza xolatini xisobga oluvchi koeffitsient;

$K_{nv}=0.9$ ([3], 2.5-j, 37-b)

K_{uv} - Kesuvchi asbob kesuvchi qismi materialini xisobga oluvchi koeffitsient;

$K_{uv} = 1$ ([3], 2.6-j, 37-b)

$$K_v = 1.84 \cdot 1 \cdot 0.9 = 1.65$$

$$V = \frac{C_v}{T^m \cdot t^x \cdot S^y} \cdot K = \frac{292}{60^{0.18} \cdot 0.5^{0.3} \cdot 0.7^{0.15}} \cdot 1.65 = \frac{292}{2.1 \cdot 1 \cdot 0.9} \cdot 1.65 = 255 m / daq$$

4.Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 255}{3.14 \cdot 33} = 2388 daq^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi $n=1500 daq^{-1}$ ni qabul qilamiz.

5.Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 33 \cdot 1500}{1000} = 160.14 m / daq$$

6. Kesish kuchi P_z ni quyidagi formuladan hisoblab topamiz:

$$P_z = 10 \cdot C_p \cdot t^x \cdot S^y \cdot v^n \cdot K_p$$

Mavjud ishlov berish sharoiti uchun:

$$C_p=300, x=1, y=0.75, n=-0.15 \quad ([3], 2.24-j, 50-b)$$

Kesish kuchidagi to'g'rilash koeffitsienti

$$K_p = K_{mp} \cdot K_{\varphi p} \cdot K_{\gamma p} \cdot K_{\lambda p} \cdot K_{rp}$$

K_{mp} - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsent;

$$K_{mp} = \left(\frac{\sigma_B}{750} \right)^n \quad n=-0.15 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$K_{mp} = \left(\frac{530}{750} \right)^{-0.15} = 1.05$$

$$K_{\varphi p}=1, K_{\gamma p}=1, K_{\lambda p}=1, K_{rp}=0.93 \quad ([3], 2.25-j, 52-b)$$

$$K_p = 1.05 \cdot 1.08 \cdot 1 \cdot 1 \cdot 0.87 = 0.98$$

$$P_z = 10 \cdot 300 \cdot 0.5^1 \cdot 0.7^{0.75} \cdot 160.14^{-0.15} \cdot 0.98 = 824.3 \text{ N}$$

7. Kesish uchun sarflangan quvvat:

$$N_{kes} = \frac{P_z \cdot V_{xaq}}{60 \cdot 1020}; \text{ kVt}$$

$$N_{kes} = \frac{824.3 \cdot 160.14}{60 \cdot 1020} = 2.15 \text{ kVt}$$

8. Dastgoh yuritmasi quvvati yetarli ekanligini tekshiramiz:

$$N_{shp} = N_d \cdot \eta = 14 \cdot 0.75 = 10.5 \text{ kvt};$$

$$N_{kes} \leq N_{shp}, 2.15 \leq 10.5, \text{ yani ishlov berish mumkin.}$$

9. Asosiy vaqtni hisoblaymiz.

$$T_a = \frac{L \cdot i}{n \cdot S}$$

Keskichni ishchi yurish uzunligi $L=l+y+\Delta$

bu yerda: $y=2 \text{ mm}$, keskichni botishi

$\Delta=2 \text{ mm}$, keskichni chiqishi

$l=20$, $i=1$ o'tishlar soni

$$L=20+2+2=24 \text{ mm}$$

$$T_a = \frac{24 \cdot 1}{1500 \cdot 0.7} = 0.022 \text{ daq}$$

8-o`tish. A yuza $D=70\text{mm}$, $l=20\text{ mm}$ da kesib ajratilsin. Dastgoh: Tokorlik revolver 1П365. Ishlov berishga qoldirilgan qo'yim miqdori $h=5\text{ mm}$. Mexanik ishlov berishdan so'ng yuzaning g'adir-budurligi $R_z=40\text{ mkm}$ ga teng. Zagotovka materiali Сталь 20,

$$\sigma_B=412\text{ MPa.}$$

Kesuvchi asbob : Tokorlik o'tuvchi keskich , kesuvchi qismi materiyali T15K6, keskich tanasi materiyali Polat 40, ko'ndalang kesim yuzasi $16\times 20\text{ mm}$, $l=160\text{ mm}$
Geometrik elementlari:

$$\gamma = 10^0 ; \alpha = 12^0 ; \lambda = 0 , \varphi = 45^0 , \varphi_1 = 45^0 , r=1\text{ mm}$$

Kesish maromini belgilaymiz.

1.Kesish chuqurligini belgilaymiz. Bir marta o'tish bilan qo'yim miqdorini olib tashlashda $t=h=5\text{ mm}$.

2.Surish qiymatini aniqlaymiz.

$$S_o=0.6-1.0\text{ mm/ayl. ([3], 2.13-j, 42-b)}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab $S_o=0.7\text{ mm/ayl}$ ni qabul qilamiz.

3.Kesishda asosiy harakat tezligini aniqlaymiz.

$$v = \frac{C_v}{T^m \cdot t^x \cdot S^y} \cdot K_v$$

T-keskich turg'unlik davri, $T=30....60\text{ daqiqa}$ ([3], 46-b)

$T=60\text{ daqiqa}$ qabul qilamiz

Formuladagi koeffitsentlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz.

$$C_v=292, x=0.3, y=0.15, m=0.18 \text{ ([3], 2.19-j, 46-b)}$$

To'g'rilash koeffitsientlarini e'tiborga olamiz.

$$K_v=K_{mv} \cdot K_{nv} \cdot K_{uv}$$

K_{mv} - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsent;

$$K_{mv} = K_f \left(\frac{750}{\sigma_B} \right)^{n_v} \text{ ([3], 2.1-j, 34-b)}$$

$$n_v=1.75; K_f=1.0 \text{ ([3], 2.2-j, 35-b)}$$

$$K_{mv} = 1 \cdot \left(\frac{750}{530} \right)^{1.75} = 1.84$$

K_{nv} - Ishlov berilayotgan yuza xolatini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{nv}=0.9 \quad ([3], 2.5-j, 37-b)$$

K_{uv} - Kesuvchi asbob kesuvchi qismi materialini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{uv} = 1 \quad ([3], 2.6-j, 37-b)$$

$$K_v=1.84 \cdot 1 \cdot 0.9=1.65$$

$$V = \frac{C_v}{T^m \cdot t^x \cdot S^y} \cdot K = \frac{292}{60^{0.18} \cdot 5^{0.3} \cdot 0.7^{0.15}} \cdot 1.65 = \frac{292}{2.1 \cdot 1.62 \cdot 0.9} \cdot 1.65 = 150m / daq$$

4.Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 150}{3.14 \cdot 70} = 682 daq^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi $n=750 daq^{-1}$ ni qabul qilamiz.

5.Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 70 \cdot 750}{1000} = 164,85m / daq$$

6. Kesish kuchi P_z ni quyidagi formuladan hisoblab topamiz:

$$P_z = 10 \cdot C_p \cdot t^x \cdot S^y \cdot v^n \cdot K_p$$

Mavjud ishlov berish sharoiti uchun:

$$C_p=300, x=1, y=0.75, n=-0.15 \quad ([3], 2.24-j, 50-b)$$

Kesish kuchidagi to'g'rilash koeffitsienti

$$K_p = K_{mp} \cdot K_{\phi p} \cdot K_{\gamma p} \cdot K_{\lambda p} \cdot K_{rp}$$

K_{mp} - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{mp} = \left(\frac{\sigma_B}{750} \right)^n \quad n=-0.15 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$K_{mp} = \left(\frac{412}{750} \right)^{0.75} = 0.64$$

$$K_{\phi p}=1, K_{\gamma p}=1, K_{\lambda p}=1, K_{rp}=0.93 \quad ([3], 2.25-j, 52-b)$$

$$K_p=0.64 \cdot 1.08 \cdot 1 \cdot 1 \cdot 0.87=0.6$$

$$P_z=10 \cdot 300 \cdot 5^1 \cdot 0.7^{0.75} \cdot 164.85^{0.15} \cdot 0.6=3202.6 N$$

7.Kesish uchun sarflangan quvvat:

$$N_{kes} = \frac{P_z \cdot V_{xaq}}{60 \cdot 1020}; kVt$$

$$N_{kes} = \frac{3202,6 \cdot 160,85}{60 \cdot 1020} = 8,41 kVt$$

8.Dastgoh yuritmasi quvvati yetarli ekanligini tekshiramiz:

$$N_{shp} = N_d \cdot \eta = 14 \cdot 0,85 = 11,9 kVt;$$

$$N_{kes} \leq N_{shp}, 8,41 \leq 11,9, \text{ yani ishlov berish mumkin.}$$

9.Asosiy vaqtni hisoblaymiz.

$$T_a = \frac{L \cdot i}{n \cdot S}$$

Keskichni ishchi yurish uzunligi $L = l + y + \Delta$

bu yerda: $y = 2 \text{ mm}$, keskichni botishi

$\Delta = 2 \text{ mm}$, keskichni chiqishi

$l = 20$, $i = 1$ o'tishlar soni

$$L = 20 + 2 + 2 = 24 \text{ mm}$$

$$T_a = \frac{24 \cdot 1}{750 \cdot 0,7} = 0,045 \text{ daq}$$

010 Parmalash operatsiyasi.

1-o'tish. M yuzada 2ta $\varnothing 6 \text{ mm}$, $l = 15 \text{ mm}$ li teshiklar parmalansin. Zagotovka materiali Сталь 20 bo'lib, uning qattiqligi 207 HB, $\sigma_B = 412 \text{ MPa}$ ga teng. Dastgoh

2B56. Kesuvchi asbob va uning geometrik parametrlari: Spiral parma $D = 6 \text{ mm}$, kesuvchi qism materiali, tezkesar po'lat P6M5. Geometrik o'lchamlari

$$2\varphi = 118^\circ; 2\varphi_0 = 70^\circ; \psi = 30^\circ; \alpha = 11^\circ \text{ ([9] 203 bet, 44 jad)}$$

1. Kesish chuqurligini belgilaymiz.

$$t = D/2 = 6/2 = 3 \text{ mm.}$$

2. Surish qiymatini aniqlaymiz.

$$S_0 = 0,25 - 0,28 \text{ mm/ayl. ([3], 2.38-j, 62-b)}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab $S_0 = 0,25 \text{ mm/ayl}$ ni qabul qilamiz.

3. Parmani turg'unlik davrini aniqlaymiz.

$T = 25$ daqiqa qabul qilamiz. ([3], 2.43-j, 66-b)

4. Kesishda asosiy harakatni tezligini aniqlaymiz.

$$v = \frac{C_v \cdot D^q}{T^m \cdot S^y} \cdot K_v \quad \text{m/daq}$$

Formuladagi koeffitsientlar va daraja ko'rsatkichlarni yozib olamiz.

$C_v = 9.8$, $q = 0.40$, $y = 0.50$, $m = 0.20$ ([3], 2.41-j, 64-b)

To'g'rilash koeffitsientini topamiz.

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{uv} \cdot K_{lv}$$

K_{mv} - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{mv} = K_r \left(\frac{750}{\sigma_B} \right)^{n_v} \quad ([3], 2.1-j, 34-b)$$

$n_v = -0.9$; $K_r = 1$ ([3], 2.2-j, 35-b)

$$K_{mv} = 1 \cdot \left(\frac{750}{530} \right)^{-0.9} = 0.73$$

K_{uv} - Kesuvchi asbob kesuvchi qismi materialini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{uv} = 1 \quad ([3], 2.6-j, 37-b)$$

K_{lv} - Teshik uzunligini xisobga oluvchi koeffitsient

$$K_{lv} = 1 \quad ([3], 2.44-j, 67-b)$$

$$K_v = 0.73 \cdot 1 \cdot 1 = 0.73$$

$$V = \frac{9.8 \cdot 6^{0.4}}{25^{0.2} \cdot 0.25^{0.5}} \cdot 0.73 = 15.4 \text{ m/daq}$$

5. Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 15.4}{3.14 \cdot 6} = 816 \text{ daq}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi $n = 800$ ayl/daq qabul qilamiz.

6. Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 6 \cdot 800}{1000} = 15.072 \text{ m/daq}$$

7. Burovchi momentni aniqlaymiz:

$$M_{kp} = 10 \cdot C_m \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p;$$

Burovchi moment uchun:

$$C_m = 0.0345; q = 2.0; y = 0.8; \quad ([3], 2.45-j, 67-b)$$

$$K_p = K_{mp}$$

$$K_{mp} = \left(\frac{\sigma_B}{750} \right)^n \quad n = 0.75 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

